

## BANKDA PLASTIC KARTALAR AHAMYATI, TURI VA QULAYLIKLARI

**Kamilova Mukarram Qobiljonovna**

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti*

*katta o'qituvchisi*

*komilova.mukarram29@gmail.com*

**Nurullayev Og'abek**

*Samarqand iqtisodiyot va servis insituti*

*Bank ishi va audit fakultet talabasi*

**Anotatsiya:** *Ushbu maqolada Bank sohasidagi karta nima.U qanday ishlaydi, hozirgi kunda plastic kartaning qanday turlari mavjud va uning samarasi haqida mulohazalar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Bank kartasi, Debet bank kartasi, Kredit bank kartasi, Xalqaro kartalar, Korporativ bank kartalari, Visa, Mastercard.*

**Annotation:** *In this article, what is a card in the field of banking. How it works, what types of plastic cards are available today and comments on its effectiveness are given.*

**Key words:** *Bank card, Debit bank card, Credit bank card, International cards, Corporate bank cards, Visa, Mastercard.*

Bank kartasi – mahsulotlar va xizmatlar uchun naqd pulsiz shaklda haq to'lash, pulni saqlash va olib yurish, hamda zarur hollarda esa naqd pul yechish uchun zamonaviy qulay to'lov vositasidir. Bank kartasi orqali do'konda xaridlar, hattoki internetda har qanday mahsulotlar, samolyot yoki poyezd chiptalari uchun to'lovlarni amalga oshirish mumkin. Odatda, kartalar banklar tomonidan chiqariladi. Bunda bank-emitent kartaning egasi oldida kartaga xizmat ko'rsatish bo'yicha majburiyatlarga ega bo'ladi.

1. Hisobvaraqlar. Karta egasi hisob raqamidan haftaning istagan kuni yoki vaqtida pul mablag'larini yechib olishi mumkin.

2. Xavfsizlik. Karta naqd pulning deyarli o'rnnini egallaydi va naqd pulni katta miqdorda o'zi bilan olib yurishga xojat qolmaydi. O'z navbatida, pulni yo'qotish xavfi ham kamayadi.

3. Qulaylik. Kartaning bu afzalligi, ayniqsa, chet elda karta egasining hayotini osonlashtiradi. Katta miqdorda valyuta olib yurishning hojati bo'lmaydi, chunki barcha xarajatlarni karta bilan to'lash mumkin. Bundan tashqari, bankomatlar yordamida hisobingizdan naqd pulni yechib olish imkoniyatiga ega bo'lasiz. Bugungi kunda 200 dan ortiq mamlakat to'lov operatsiyalarida bank kartalaridan foydalanmoqda.

4. Internet orqali xizmatlar uchun to'lovlar/xaridlar. Internet orqali biznes jadal rivojlanmoqda. Har yili onlayn-do'konlar soni ko'paymoqda hamda bank kartalarini to'lov sifatida qabul qiluvchi boshqa xizmat turlari soni oshmoqda.

Debet bank kartasi – bankdagi joriy hisob raqamingizga ulangan bank kartasi. Bu karta mahsulotlar va xizmatlar uchun naqd pulsiz to'lovlar, bankomat orqali naqd pulni yechib olish va pul o'tkazmalarini amalga oshirish uchun ishlatalish mumkin. Debet kartasiga ish haqi, pensiya, stipendiya, ijtimoiy nafaqalar, depozit bo'yicha foizlar kabi mablag'lar

o'tkazilishi mumkin. Bugungi kunga kelib aynan bu turdag'i kartalar juda mashhur hisoblanadi.

Kredit bank kartasi – bu kredit shartnomada belgilangan chegara doirasida bank mablag'lari hisobidan to'lov operatsiyalarini amalga oshirish imkonini beruvchi bank kartasidir.

Xalqaro kartalar – xalqaro to'lov tizimlarida qo'llaniladigan kartalar. Visa va MasterCard kabi to'lov tizimlari.

Korporativ bank kartalari – xodimlarga tashkilot manfaatlari yo'lida xaridlarni amalga oshirish va to'lov hujjatlarni to'lash imkonini beruvchi bank kartasi.

Kartaning oldi tarafida egasining nomi, kartaning raqami, amal qilish muddati, kartani bergen bank nomi va to'lov tizimining logotipi ko'rsatilgan. Teskari tomonida esa karta egasining imzosi va magnit tasmasi mavjud. Ushbu tasma karta haqidagi elektron ma'lumotlarni saqlaydi. So'nggi yillarda kartaga o'rnatilgan chip ma'lumot tashuvchi sifatida keng ishlatilmoqda.

Agar Siz kartani yo'qotsangiz uning amal qilish muddatini to'xtatish uchun darhol kartani bergen bankka murojaat qilishingiz kerak. Shunda, yo'qotilgan karta orqali amalga oshiriladigan har qanday operatsiyalar bloklanadi va hech kim pulingizni ishlata olmaydi. Bir necha kun ichida bank kartani qayta chiqarib beradi.

Karta orqali o'tkazilgan operatsiyalarini kuzatish uchun SMS-xabarnoma funksiyasini yoqish tavsiya etiladi. Bank kartangizga mablag'lar kelib tushganda yoki ularni sarflaganingizda bankingizdan SMS keladi. Agar Siz bajarmagan chiqim operatsiyalarini ko'rsangiz, kartani tezda bloklishingiz mumkin.

Bank kartasi yordamida mobil ilovalar orqali barcha bank xizmatlaridan foydalanish mumkin.

Ular qulay, ishlatilishi oson, jamg'armalarning yuqori darajadagi himoyasini ta'minlaydi va har xil turdag'i to'lov operatsiyalarini amalga oshirish imkonini beradi. Bu kartalar qanday ishlaydi va qaysi karta qaysi maqsad uchun mos kelishini ushbu materialda ko'rib chiqamiz.

Avvalo, xalqaro kartalar ular chiqarilgan to'lov tizimlariga ko'ra farqlanadi. Oddiy qilib aytganda, to'lov tizimi elektron to'lovlarini qayta ishlovchi moliyaviy kompaniyadir (odatda transmilliy korporatsiya). Uning logotipi kartaning old tomonining pastki o'ng burchagida joylashadi.

Dunyodagi eng yirik protsessing kompaniyalari bo'lib Visa, Mastercard, American Express va Xitoyning UnionPay tizimlari hisoblanadi. Bugungi kunda O'zbekistonda Visa, Mastercard va UnionPay mavjud. Eng mashhurlari Visa va Mastercarddir. Ushbu kartalarni imkoniyatlari va afzallliklari nuqtai nazaridan ko'rib chiqamiz.

Qaysi to'lov tizimi yaxshiroq - Visa yoki Mastercard?

Ikkala to'lov tizimi - Visa va Mastercard - dastlab AQShda paydo bo'lgan. Oddiy iste'molchi uchun ular orasida unchalik katta farq yo'q. Ikkala tizimning kartalari deyarli butun dunyoda qabul qilinadi, ular o'xshash xizmatlarni, sodiqlik dasturlarini va xizmat narxlarini taqdim etadi.

Visa xalqaro to'lov tizimi qanday ishlaydi?

Visa xalqaro to'lov tizimi tomonidan xizmat ko'rsatadigan bank kartalari dunyoda juda mashhur. Bugungi kunda bu eng ko'p ishlatiladigan plastik karta bo'lib, u orqali deyarli

hamma narsa uchun hamma joyda to'lash mumkin. Boshqa analoglari singari, Visa kartasi asosan naqd pulsiz to'lovlar uchun mo'ljallangan.

Yarim asrdan ko'proq vaqt oldin (1956) VISA loyihasi Bank of America moliyaviy instituti tomonidan Kaliforniyada BankAmericard deb nomlangan kredit kartalarining chiqarilishi munosabati bilan boshlangan. Keyinchalik (1976) xalqaro IBANCO kompaniyasi Visa International kompaniyasiga aylandi. BankAmericard emitentlarining milliy assotsiatsiyasi ham o'z nomini Visa USA ga o'zgartirdi

Visa karta egalari tomonidan amalga oshirilgan to'lovlarini qayta ishlash bo'yicha global tarmoq moliyaviy institutlar va ko'plab kommunikatsion aloqalarining murakkab tizimidir. Ushbu to'lov kartalari bo'yicha tranzaksiyalarni qayta ishlash bo'yicha moliyaviy tarmoq xalqaro to'lov tizimiga 160 turdag'i jahon valyutalarida sekundiga 3750 ga yaqin tranzaksiyalarni amalga oshirish imkonini beradi.

Hozirgi vaqtida Visa International xalqaro to'lov kartalari tizimi 21 000 dan ortiq moliya institutlarini o'z ichiga olgan assotsiatsiyaga aylandi. Ushbu kompaniyaning asosiy vazifalari to'lov tizimining raqobatbardoshligini oshirish va uning rentabelligini oshirishdan iborat. Mahalliy banklarimiz ushbu xalqaro tizim bilan ishlagan holda Visa plastik kartalarining bir nechta turlarini, xususan, Classic, Gold, Platinum, Infinite va boshqalarni taklif qilmoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Qobiljonovna K. M. et al. TIJORAT BANKLARINING KREDIT SIYOSATI //MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH. – 2024. – T. 3. – №. 30. – C. 116-118.
2. Mukarram K. Issues Of The Social Significance Of Education In Uzbekistan //Ta'lim Va Rivojlanish Tahlili Onlayn Ilmiy Jurnali. – 2022. – C. 25-27.
3. Mukarram K. Comparative Analysis And Features Of Russian And Foreign Linguistic Terms. – 2022.
4. Kobiljonovna K. M. et al. METHODOLOGICAL PRINCIPLES OF MODERN METHODS OF TEACHING THE RUSSIAN LANGUAGE //E Conference Zone. – 2024. – C. 10-14.
5. [5. https://finlit.uz/uz/articles/payments-and-transfers/bank-card/](https://finlit.uz/uz/articles/payments-and-transfers/bank-card/)
6. [6. https://depozit.uz/news/xalqaro-plastik-kartalar-xususiyatlari-qulayliklari-va-turlari](https://depozit.uz/news/xalqaro-plastik-kartalar-xususiyatlari-qulayliklari-va-turlari)